

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 378.014.15

**GIPOTETIK-DEDUKTIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA ANALITIK
FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI**

**МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ГИПОТЕТИКО-ДЕДУКТИВНОГО ПОДХОДА**

**METHODOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN FUTURE
TEACHERS BASED ON THE HYPOTHETICAL-DEDUCTIVE APPROACH**

Aliyev Nizomiddin Maxmasaitovich 

Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, analitik tafakkurni rivojlantirish tizimini takomillashtirish usullari, analitik tafakkurni rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

На основе гипотетико-дедуктивного подхода в статье изучаются теоретико-методологические основы развития аналитического мышления у будущих педагогов, методы совершенствования системы развития аналитического мышления, эффективности развития аналитического мышления. Также на основе гипотетико-дедуктивного подхода были проанализированы методологические аспекты развития аналитического мышления у будущих учителей.

Abstract

Based on the hypothetical-deductive approach, theoretical-methodological foundations of developing analytical thinking in future pedagogues, ways of improving the system of developing analytical thinking, effectiveness of developing analytical thinking are studied in the article. Methodological aspects of developing analytical thinking in future teachers were also analyzed based on the hypothetical-deductive approach.

Kalit so'zlar: gipotetik, deduktiv, gipotetik-deduktiv yondashuv, tafakkur, analitik tafakkur, analitik fikrlash, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

Ключевые слова: гипотетический, дедуктивный, гипотетико-дедуктивный подход, мышление, аналитическое мышление, аналитическое мышление, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспертиза оценка, педагогический эксперимент.

Key words: hypothetical, deductive, hypothetical-deductive approach, thinking, analytical thinking, analytical thinking, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment.

KIRISH

Dunyoning rivojlangan ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida analitik tafakkurni rivojlantirish, axborotlarni tahlil qilish va voqe-a-hodisani o'rganish jarayonida u haqda atroflich, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to'xtamga kelish ko'nkmalari rivojlangan kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu asosida yangi axborotlarni izlab topish, uni o'rganib, tizimga solish, taqqoslash, baholash, mantiqiy fikrlash, dalillarga tayanish, mavjud axborotlarga tanqidiy munosabatda bo'lish, olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri xulosaga kelish ko'nkmalari rivojlangan kadrlarni tayyorlashga erishiladi. Ayniqsa, taraqqiyotning hozirgi darajasi har qanday kasb egasidan analitik tafakkur asosida o'xshatish, qiyoslash, qismlarga ajratish, umumillashtirish, tizimlash, modellashtirish, tasniflash, mo'ljal qilish orqali o'z faoliyatini rejalashtirishni talab qiladi. SHuning uchun bo'lajak kadrlarda tezkor qaror

qabul qilish, vaziyatga tez moslashish va tahliliy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda analitik tafakkurni rivojlantirish vazifalari turli fanlar doirasida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, B.S.Abdullaeva, A.Abduqodirov, M.Aripov, A.Y.Bakirova, A.D.Do'sumbetov, M.E.Jumayev, G.K.Izetaeva, U.Begimqulov, U.Yuldashev, F.M.Zakirova, M.E.Mamarajabov, N.I.Tayloqov, R.N.Nazarov, H.A.Nasimov, M.R.Fayziyeva, SH.S.Sharipov, D.I.Yunusova, S.Q.Tursunov, D.N.Mamatov, B.M.Suropovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida analitik tafakkurni rivojlantirishning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda analitik tafakkurni tadqiq etishga qaratilgan bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Analitik tafakkurni o'rganishni falsafa, psixologiya, pedagogika fanlari hamkorligida amalga oshirish ushbu jarayonning samarasini ta'minlaydi. Bunda talabalarning aqliy faoliyatini tashkil qilish masalasi katta ahamiyatga ega. Shu sababli mavjud adabiyotlardan tafakkur, analitik tafakkur, uning mohiyati, shakllanish xususiyatlari va imkoniyatlarini o'rganib chiqdik.

Eng avvalo, «tafakkur» tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. «Falsa: qomusiy lug'at»da «tafakkur» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Tafakkur (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiyligi, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o'rtaida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi».

Psixologiya fanlari doktori, professor E.G'oziyev esa, mazkur tushunchaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: «Tafakkur inson aqliy faoliyatining, aqliy zakovatining, ongli harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lAMDagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi».

Psixolog olim E.Z.Usmonovaning fikricha, tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadigan jarayon bo'lib, dastavval keng predmetli (amaliy) faoliyat tarzida namoyon bo'ladi, keyinchalik u «aqliy» xatti-harakat xarakterini oluvchi shaklga aylanadi. Boshqa bir olim Q.Shonazarov «tafakkur» tushunchasining quyidagi ta'riflar majmuuni taklif etgan: tafakkur voqelikni inson tomonidan bevosita hissiy idrok qilib bo'lmaydigan obyektiv xususiyatlari, aloqalari, munosabatlari bilan ongli ravishda aks ettirilishini bildiradi; tafakkur biror tayyor yechimi yo'q muammo paydo bo'lganda boshlanadi. Inson biror narsani bilish ehtiyoji paydo bo'lganda fikrlay boshlaydi; tafakkur ongning voqelikni aniq, chuqur, to'liq va bevosita umumlashtirib va bevosita aks ettirish (bilish)ga qaratilgan faoliyatidir; tafakkur bu inson miyasida predmet va hodisalarning o'z qonuniy aloqalari va munosabatlari bilan umumlashtirib aks ettirish jarayonidir; tafakkur yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog'liq, aloqador, analiz, sintez jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir; tafakkur individni bilvosita va umumlashgan holda aks ettirishga qaratilgan bilish jarayoni; tafakkur obyektiv voqelikning faol in'ikosi; bilimlarning tushuncha, mulohaza, fikr, xulosa, nazariya va hokazolar tarzidagi shakllanishi, harakati va rivojlanishidir.

Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilalar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalananadi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bavosita (bilvosita) aks ettirradi, narsa va hodisalar o'rtaсидаги eng muhim bog'lanishlar, munosabatlari, xususiyatlarni anglab etadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqeja va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtaсидаги aloqa va munosabatlari ham tafakkur yordamida nomoyon bo'ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o'zini-o'zi tanqid, baholash, tekshirish, o'zini o'zi tekshirish, nazorat qilish, o'zini-o'zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Demak, tafakkur ob'ektiv olam in'ikosining olyi shakli, tushunchalar, nazariyalari va h.k. larda narsa va hodisalarning muhim bog'lanish va aloqalarini aks ettirish, yangi nazariya, g'oya yaratish, bo'lajak jarayonlarni bashorat qilish kabilarda namoyon bo'ladigan faol jarayondir.

ILMIY AXBOROT

Psixologik nuqtai nazardan, tafakkur – predmet va hodisalarning umumiyligi, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyalarga ega: 1) unda vogelik abstraktlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan fikran chetlashgan, mavhumlashgan holda e'tiborimizni uning umumiyligi, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyat va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi; 2) tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosa murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va xodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi; 3) tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo'limgan narsalar yuqori – darajada ideallashgan ob'ektlar (masalan, absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar)ni yaratish, turli xil formal tizimlarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning oldindan ko'rish, bashorat qilish imkoniyati vujudga keladi; 4) tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisa. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, b. kishilar bevosa qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosa voqe bo'lish shaklidir. Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli va u atrof-olamni bilish quroli, inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shart. Tafakkur qilish jarayoni biron tayyor yechimi yo'q muammoli vaziyat tug'ilganda boshlanadi. Ya'ni inson biron narsani bilish ehtiyoji paydo bo'lqanda fikrlay boshlaydi.

Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq – til bilan chambarchas bog'langan. Insonda tafakkur va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudot. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi.

Ratsional tafakkur miyaning chap tarafida amalga oshirilib, narsa va hodisalarning xususiyatlarini ifoda etadi. Bunda kishi narsa va hodisalarning xususiy tomonlarini qismma-qism his qilib, ularni bir-biriga ratsional bog'lab turib anglaydi. Muroqaba yordamida fikr yuritish asosan miyaning o'ng yarim sharida amalga oshirilib, ob'ektiv borliq to'lqinini his qiladi. Bunday tafakkur orqali inson tasavvur qila oladi, hissiyotga beriladi, niyat va ijod qiladi, zavqlanadi, badiiy adabiyotlarni o'qiydi, ilm bilan shug'ullanadi. Bu turdag'i tafakkur yordamida inson ob'ektiv borliqni bir butunlik – majmu sifatida his etib, shu butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi zaruriy aloqadorlikni his qila oladi.

Kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali bo'lajak pedagoglarda pedagogik dunyoqarash tarkib topadi. O'z navbatida, pedagogik dunyoqarash bo'lajak pedagogda keng ko'lamda analitik tafakkur yuritish imkonini hosil qiladi. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishini, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Shuningdek, dunyoqarash «dunyonи tushuntirish», «dunyonи his qilish», «ifodani idrok qilish» kabi tushunchalar bilan yaqin ma'nodosh ekanligini aytish joiz.

Analitik tafakkurni rivojlantirish jarayoni bo'lajak pedagoglarning intellektual faoliyatining rivojlanishi bilan ham bog'liq. Intellektual ko'nikmalar o'zida xotiraning rivoji; idrok etishning rivoji; tasavvurlarning rivoji; diqqatning rivojini aks ettiradi.

Intellekt – shaxs xususiyati bo'lib, ob'ektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o'ziga xos aloqalari va qonuniyatlarini bilan ongimizda aniq va chuqr aks ettiradigan qobiliyatdir.

Intellekt barcha aqliy jarayonlarda, birinchi navbatda, tafakkur va ijodiy xayolda ko'rindi. U ko'proq yorqinroq yangi muammoni mustaqil yechishda kuzatiladi.

XULOSA

Xulosa qilganda, analitik tafakkur uslubi faqat aytish mumkin bo'lgan narsaga chegara o'rnatish masalasidagina qarshi bo'lgan. Mantiqiy tuzilgan tilda, metafizik gaplar shakllangan

bo'lishi mumkin emas, negaki unda yanglishishga olib keladigan hech narsa bo'lmasligi kerak. Muammo mohiyati shundaki, kiritilayotgan o'zgartirishlar juda oson tushuniladigan, avval olingen ma'lumotlar bilinmas bo'lishi kerak. Ya'ni analitik tafakkur uslubi mantiqiy paradokslarni gaplarni istisno qilish yo'li bilan tushuntirishga moyil.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Фозиев Э. Тафаккур психологияси / Дорилфунун талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004.
- 2.Тожиев М., Зиёмуҳаммадов О. Миллий педагогик технологияни таълим-тарбия жараёнига татбиғи ва уни ёшлар интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдаги ўрни. – Т.: MO'MTOZ SO'Z, 2010.
- 3.Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси / Ўзбекистон Республикаси ФА И.Мўминов номидаги Фалсафа ва хуқуқ институти. Тошкент.: "Фалсафа ва хуқуқ", 2006.
- 4.Фалсафа: қомусий лугат. – Тошкент: Шарқ, 2000.
- 5.Шодмонова Ш.С. Олий ўқув юрти талабаларида мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш (Касб таълими йўналиши мисолида): Пед. фан. док. ...дисс. – Т.: ТДПУ, 2010.